

AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA RAZVEDKANI O'RNI

Mamajonov Soyibjon Halilovich

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tarixchilari nigohida Amir Temur harbiy san'atidagi razvedkani o'rnini o'rganilishi haqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga Amir Temur harbiy san'at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Harbiy san'at, Rus tarixchilari, Davlatlar to'g'risidagi ma'lumot, Qurol-yaroq, M.I. Ivanin, Orenburg chegaralari, To'xtamishxon, Qunduzcha.

Аннотация: В данной статье кратко рассматривается изучение роли разведки в военном искусстве Амира Темура с точки зрения российских историков. Статья призвана познакомить студентов высших и средних специальных учебных заведений с секретами военного искусства Амира Темура.

Ключевые слова: Амир Темура, Военное искусство, Русские историки, Сведения о государствах, Оружие, М.И. Иванин, Оренбургские границы, Тохтамышхан, Кундузча.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli qarorining 2- bobida ko'rsatilgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalaridan kelib chiqib, ulug' ajdodimiz Amir Temurning boy ma'naviy merosi, jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish maqsadida ushbu maqolani yozishga qaror qildim.

Amir Temur haqida fikr bildirgan ko'plab tarixchilar asarlari bilan tanishganmiz va o'zimizga hulosalar chiqarganmiz. Bunday tarixchilardan biri Rus tarixchisi M.I. Ivanin o'z asarida ham A.Temur davri va harbiy san'atini yoritib bergan. U "Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur", deb nomlangan asarida Sohibqironning davridagi tarixiy jarayonlarni chuqurroq tahlil qilgan, uning shahsiyati, harbiy san'ati va qolaversa jahon tarixida tutgan o'rni haqida chuqurroq to'htalib keng-ko'lamda baho bergan.

M.I. Ivanin o'z asarida Amir Temurning boshqa davlatlar haqida ma'lumot to'plash uchun qo'llagan vositalari haqida ham fikr yuritib o'tgan. Uning fikricha, qo'shni davlatlar haqidagi ma'lumotlar ko'plab yengil bo'linmalar orqali to'plangan edi. Buyuk Sohibqiron savdo karvonlari yordamida ham turli mamlakatlar haqida ma'lumotlar to'plab kelgan. U o'z mamlakatiga kelgan savdogarlar, sayyohlar va olimlarni alohida hurmat bilan kutib olgan, yashirin ravishda maxsus kishilar tayinlagan, ular orqali o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlagan. Bunday maxsus kishilar chet elliklarning doimiy xizmatida bo'lib, ularni ko'nglini olishgan. Zarur ma'lumotlar to'plash uchun esa boshqa mamlakatlarga, asosan, uning ishongan va doimiy yordamini ayamagan darveshlar jo'natilgan. Manbalarda Sohibqironning nafaqat qo'shni mamlakatlar haqida, balki olisda joylashgan yurtlar haqida ham kerakli barcha zarur ma'lumotlarga ega bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Bu albatta Amir Temur ihtiyorida ko'p miqdorda tayyorlangan razvedka bo'linmasi bo'lganligini ko'rsatishi

mumkin. Misol uchun, Amir Temur va Ibn Xaldun o'rtasidagi suhbatni ko'rib chiqsak. Ibn Arabshoh ushbu suhbatni quyidagicha yoritadi: "So'ngra Temur o'z odatiy fe'liga ko'ra Ibn Haldundan Marg'ib shaharlari va yerlarini so'rab, uning mavze'lariyu yo'llari, qishloqlariyu so'qmoqlari, qabilayu xalqlarini (batafsil), aniq bayonlab berishni so'ragan. Bundan maqsad Ibn Haldunni imtihon qilish bo'lib, Temur bu narsalarga muhtoj emas edi. Chunki uning tasavvur xazinalarida butun mamlakatlar suratlari mavjud edi". Hulosa qilish mumkinki, Amir Temur Yaqin Sharqqa yurish boshlashidan avvalroq Marg'ib mamlakatlari haqidagi ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lganligini bilamiz. Bunday mohirlik unga kelajak yurishlarning rejalarini tuzishda katta yordam bergan. Bundan hulosa qilish mumkinki Sohibqiron bunday yirik tarkibga ega bo'lgan razvedkachilariga tayanib ish ko'rgan bo'lishi mumkin.

Rus tarixchisi M.I. Ivanin Amir Temurning harbiy yurishlarini keng ko'lamda tahlil qiladi va safar yurishlaridan boshlab jangga kirish va undan g'alaba bilan chiqishgacha bo'lgan jarayonlarni o'rganishga harakat qiladi. U Amir Temurning 1391 yilda To'xtamishxonga qarshi Oltin O'rdaga qilgan yurishini ham oldindan jiddiy tahlil qilib chiqqan. 1390 yil kuzida yurishini boshlagan Amir Temurning oldida dushman yeriga olib boradigan uch yo'l borligini, ularning geografik holatini, qulay va noqulay tomonlarini juda keng ko'rib chiqqan. M.I. Ivanin tahlil qilgan bu yo'llar quyidagilar edi:

Birinchisi Orol va Kaspiy dengizi o'rtasidagi Ust-Yurt tepaliklari orqali;

Ikkinchisi Orol dengizining sharqiy tomonidan O'rol daryosi o'rta qismlari tomon;

Uchunchisi Orol dengizining sharqiy tomonidan Shimoliy Tobol daryosigacha taxminan hozirgi Troisk va Zvenogolovsk qal'alarigacha Orenburg chegaralari bo'ylab harakatlanish yo'li.

Tarixdan bizga ma'lumki, buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz uchinchi yo'lni qulay deb bilgan. M.I. Ivanin tahlilida ham shu uchinchi yo'l eng xavfsiz va qulay yo'l ekanligi haqida ko'rsatilgan. Harbiy safar chog'ida Amir Temurning katta miqdordagi qo'shinini oziq-ovqat bilan uzuluksiz ta'minlab borishi, og'ir vaziyatlardan mohirlik bilan chiqib ketishini muallif ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, Amir Temurning To'xtamishni o'zi uchun qulay joylarga chekinishga majbur qilishini, jang maydonini tanlashi haqidagi mulohazalari ham keng tahlil qilinganini aytib o'lgan. M.I. Ivaninning fikricha, Amir Temur To'xtamishni o'rmonzorlar orqali chekinishga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Albatta bu o'rmonzorlarda pistirmalar qo'yish, bu joydan to'satdan hujum qilish uchun qulay joy bo'lgan. "Mohir sarkarda bo'lgan Amir Temur o'rmonning bu afzalliklarini yaxshi bilgani uchun To'xtamishni bu afzalliklardan ununli foydalanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida chap tarafidan aylanib o'tishga lozim ko'radi. Bunday harakat bilan Amir Temur To'xtamishxonning chekinishi mumkin bo'lgan yo'lini, ya'ni Volga daryosining burilish joyidan (Samara va Chistopol shaharlari o'rtasida), yangi qo'shinlar kelib qo'shilishi mumkin bo'lgan poytaxti tomon borgan yo'lni berkitib tashlaydi". Yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatda To'xtamish janub tomonga ham chekinishini iloji yo'q edi. Chunki bu chekinish uni daryoning yuqori qismidan kelishi mumkin bo'lgan madad kuchlaridan ajratib qo'yardi va daryo bo'yidagi barcha qimmatli boyliklar esa Amir Temur qo'liga tushib qolardi. Amir Temur bu boyliklar yordamida urushni yanada uzoqroq vaqt davom ettirishi mumkin edi. Natijada To'xtamish Qunduzcha jangiga kirishishga majbur bo'lgan. Chunki bu yerda jang qilish To'xtamish uchun ham bir oz qulay bo'lgan, Volga daryosining o'tloqlik tomonidan to'plangan behisob boyliklarni himoya qilib, jang boy

berilganda esa janub tomonga chekinishi, qo'shinni saqlab qolish imkonini berishi mumkin bo'lgan. Ammo Amir Temur jang vaqtida To'xtamishni janubga chekinish yo'lini ham to'sib qo'yishga erishdi va uni butkul tor-mor etdi. Chekinishga ulgurganlar ham shunchalik tez ta'qib qilindiki, 200 chaqirim masofa mo'g'ul qo'shinining murdalari bilan to'lib ketdi. M.I.Ivanin To'xtamish qo'shini safida rus askarlari bo'lganligini ham ta'kidlab o'tgan. U bu harbiy yurishni o'rganar ekan Amir Temur qo'shinlari o'tgan yo'llardan harakatlanib chuqur o'rganib chiqadi: "Men o'zim ta'riflayotgan yerlarda bo'lganimda qalin o'rmonlar ichida, shakshubhasiz hujumlardan himoyalaniish uchun qazilgan qadimgi chuqur xandaqlarni ko'rganman". Jang bo'lgan yerlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan muallif Amir Temurning bu harbiy yurishini harbiy san'atning durdonasi sifatida tahlil qila olgan va uning harbiy ishning dahosi ekanligiga yana bir bor iqrar bo'lgan.

Hulosa qilib shuni aytilish mumkinki barcha tarixchlar kabi M.I.Ivanin ham Amir Temurni barcha janglarda g'alaba qozonishi sirlarini yoritib berishga harakat qilgan. Jang oldi harakatlari va dushman haqidagi barcha ma'lumotlarni o'rganishi jarayonlarini ham taxlil qilgan. Dushman harakatlarini doimiy nazoratda ushlagani haqidagi mulohazalari uni pistirmalarga tushmaganligini ko'rsatib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamajonov.S.X. Amir Timur's procedure for assembling the army on the eve of the battle on the kondurcha river in 1391. Journal of international scientific research (2024), 5, 80-81.
2. Mamajonov.S.X. Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi yurishlarini sabablari. Oriental Journal of Akademik and multidisciplinary research (2023), 4, 20-23.
3. Mamajonov.S.X. Amir Temurning qo'shinining jangovar tartibi. Journal International Multidisciplinary Research in Academic Science (2025), 4, 281-284.
4. Mamajonov.S.X. Izuchenie voennogo iskusstva Amira Temura v istoriografii Sredney Azii. Innovative achievements in science 2025. International scientific - online conference. (2025), 3, 65-67.
5. Mamajonov.S.X. Izuchenie voennogo iskusstva Amira Temura v zarubejnx istochnikax. Innovative achievements in science 2025. International scientific - online conference. SPEYN, MADRID. (2025), 4, 65-67.
6. Mamajonov.S.X. Amir Temur harbiy san'atini chet el manbalarida. Ijodkor O'qituvchi ilmiy-uslubiy jurnal (2025), 3, 172-174.
7. Harbiy tarix, darslik S.Mamajonov. Farg'ona 2021. 83-130.